

INGLIZ TILIDA 4 ASOSIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MAHORATI

N. Abduvaliyeva ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada IELTSning asosiy 4 ta turi bo'gan tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalari haqida so'zlar boradi. Har bir bo'limni o'rganish uchun zaruriy texnikalar va strategiyalar, ulardan qanday foydalanish kerakligi tushuntirilgan. Va shuningdek ushbu maqolaning oxirida har bo'lim uchun kerakli va foydali bo'lgan kitoblar ham keltirib o'tigan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish, asosiy usullar, IELTS, topshiriq, natija.

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish dunyo miqyosida ommalashib bormoqda. Shuningdek, ingliz tili eng rivojlangan til hisoblanadi. Ingliz tili xalqaro til hisoblangani uchun ham uni o'rganish juda ham muhimdir va u bizga chet eldagi odamlar bilan aloqa qila olishimiz imkonini beradi. Ingliz tilini o'rganish juda ham murakkab jarayonlardan biridir. Ingliz tilining 4 ta asosiy bo'limlari mavjud. Ular: tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish ko'nikmasidir. Va yana qo'shimchasiga ingliz tili bizdan lug'at boyligi va grammatikani bilishimizni talab qiladi.

Tinglab tushunish. Ma'lumki, ingliz tilining eng murakkab bo'limlaridan biri bu tinglab tushunish bo'limi ekan. Tinglab tushunishni oshirish uchun bir qancha texnikalari mavjud. Har bir inson tug'ilganidan to besh yoshgacha atrofdagilarni tinglash orqali gapirish ko'nikmasi rivojlanadi. Ingliz tilini o'rganishda ham eng avvalo tinglab tushunishni rivojlantirish kerak. Hozirgi kunda IELTS sertifikatini olish dunyo bo'ylab keng miqyosda tarqalmoqda. IELTSda eng yuqori ball bu 9.0 dir. IELTS Listeningni rivojlantirish uchun bir qancha usullar bor. Uni turli yo'llar bilan o'stirishimiz kerak. Masalan,

- Birinchisi, siz qaysi darajada bo'lsangiz o'sha darajadagi kino, multfilm, pod castlarni tinglashimiz kerak. Bu bizga sekinlik bilan tinglab tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

- Ikkinchisi, umumiy IELTS aksentlaridan foydalanishni boshlash va uni o'rganish. IELTS Buyuk Britaniyada yaratilganligi ma'lum. Shu sababli IELTS Listening ham Buyuk Britaniya bilan chambarchas bog'liqdir va ular asosan Listening jarayonida urg'ulardan foydalanishadi. Shuning uchun ham listening Britaniya aksentidan foydalaniladi.

- Uchinchisi esa, muntazam IELTS Listening mashqlarini bajarib borish. Listening bo'limidagi savollarga javob berish uchun tayyorgarlik qilish juda ham muhimdir.

- Va eng muhimi, e'tibor qaratishdir. Eshitgan har bir ma'lumotlarga e'tibor qaratish ushbu qobiliyatni mukammal darajada o'rganishga yordam berishi shubhasizdir. [1]

O'qib tushunish. Ko'chilik IELTS topshiruvchilari imtihan davomida o'qib tushunish bo'yicha bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu yo'nalishning ham bir qancha texnik uslublari mavjud.

- Masalan, ko'plab o'quvchilar test jarayonida lug'at boyligi kamligi uchun ham vazifani yaxshi bajara olishmaydi. Shuning uchun ham eng avvalo ko'plab so'zlarni yodlash zarurdir.

- Keyingisi esa o'zingiz qiziqqan mavzularda ko'plab ma'lumotlarni o'qish kerak. ushbu ko'nikmani rivojlantirish uchun odam o'zi o'qigan narsadan zavq olishdir. O'qish davomida o'zi bilmagan so'zlarni yozib olish esa lug'at boyligini oshirishga yordam beradi.

- Shuningdek, har xil janrlarni o'qib borishdir, masalan, jurnal, kitob, hikoya, roman va ilmiy maqolalar bo'lishi mumkin. Ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun bizdan vaqt va asosiysi ulkan sabr talab qiladi. Har kuni turli xil materiallardan foydalanish ushbu qobiliyatni rivojlantirishimizga yordam beradi [5].

Gapirish ko'nikmasi. IELTSning eng murakkab bo'lgan qismi bu albatta gapirish bo'limidir. Har bir IELTS topshiruvchilari hamma bo'limlaridan yaxshi ball ola olsa ham ammo yozish va gapirish bo'limlaridan yetarlicha ball olisholmaydi va kutgan natijasi chiqmaydi. Ingliz tilida gapirish bu ancha murakkab jarayondir. Ingliz tili biz uchun ikkinchi til hisoblanadi va ikkinchi tilda gapirish anchagina murakkabdir. Ammo ushbu bo'limni ham anchagina balandlatirish imkoni bor. Buning uchun ba'zi texnikalardan to'g'ri foydalanish kifoya. Ularning eng oson usulidan biri bu o'z-o'zi bilan muloqot qiloshdir. Agar siz o'zingizga mos suhbatdosh topa olmasangiz oyna siz uchun eng yaxshi do'st hisoblanadi. Har kuni erta tongdan oyna bilan muloqot qilsangiz sizda sekinlik bilan hayajon yo'qolishni boshlaydi va o'zingizni erkin his qila olish qobiliyatingizni oshiradi. Keyingi texnika esa namuna savollariga qarab oldindan javob tayyorlashdir. Asosan javobi bo'lgan savollarni ko'proq o'qishdir.

¹ Abduvaliyeva Navruza Obid qizi, SamDChTI, Ingliz tili fakulteti, 2-bosqich talabasi

Ushbu turdagi savollarga javoblar asosan tog'ri, va aniq javob berilgan bo'ladi. Keyingi texnika esa gapirish davomida o'z ovoqimizni yozib olish. Biz yozib olgan nuqtqimizni tinglasak qayerda xato qilayotganimizni, aksentlarda qanday muammolar borligini eshita olamiz. Bu keng tarqalgan strategiyalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Va yana ushbu bo'limning muhim qismi deb hisoblab bo'ladigan jarayon bu emotsiyaga boy bo'lishdir. Gapirish davomida o'zini erkin his qilish bu juda ham muhimdir [2].

Yozish ko'nikmasi. Bu IELTS imtihonining eng so'ngisi hisoblanadi. Ushbu bo'lim ham qolganlari bilan bir xil darajada qiyindir. Bu bo'limda eng ko'p xato qilinadigan qismi bu fikr yetishmasligi. Agar biz yetarlicha kitoblarni o'qimasak bizga fikrlar kelmaydi va yozayotgan mavzuyimiz mujmal holda bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'plab maqolalarni o'qishimiz zarur. Va yana biz yozishni kundalik hayotimizga aylantirishimiz kerak. Har kuni biatta paragraftan bo'lsa ham yozishni mashq qilishni odatiy kunga aylamtirish darkor. Shuningdek, yozish jarayonida murakkab bo'lgan grammatikalardan foydalanish va uzun so'zlarni ishlatish yozganingizni o'qiydiganlarni chalg'itadi va tushunmaslik ehtimoli katta. Har doim bitta to'liq inshoni yozgandan so'ng uni tajribali o'qituvchilarga tekshirtirish zarur. Har bir qilgan xatoni erinchoqlik qilmasdan tekshirib chiqish muhimdir. Yozish jarayonida qanday ma'lumotlar berilganini aniqlash uchunularni diqqat bilan o'rganib chiqish zarur. Yozish davomida har doim so'zlarning sonini sanab borish kerakdir. Ushbu strategiyalarning har biridan unumli foydalanish albatta IELTSdan yaxshi ball olishimizga yordam beradi [3].

Har bir bo'limni rivojlantirish uchun bir qancha kitoblarni tavsiya berish mumkin.

1. Wrting bo'limi uchun IELTS Advantage Writing skills, Get IELTS BAND 9 (writing task 1 uchun) va Lizning kitoblari.
2. Speaking bo'limi uchun Talked like TED, Just listen(Mark Goulston), va IELTS speaking strategies(Rachel Mitchell).
3. Reading bo'limi uchun ELS English through reading, Thematic IELTS Reading, Active skills for reading.
4. Listening bo'limi uchun Thematic IELTS Listening, Cambridge Books.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ingliz tilini o'rganish ko'ringanidan anchagina murakkabdir. Eng avvalo ingliz tilini mukammal darajada bilish va xohlagan darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritish uchun har 4 ta bo'limni juda ham e'tibor bilan o'rganish va ko'rsatilgan usullardan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Asadova, C. S. qizi Timirxanova, NV (2022). *A quick and easy method of teaching english for primary school. international conference on learning and teaching*, 1(1).
- [2]. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). *Ingliz tilida lug'at yodlashning samarali usullari. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).
- [3]. Salimovna, C. (2024). *Ingliz tilida talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish. tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(2), 275-277.
- [4]. Salohiddin, K. (2024). *Modern approaches to teaching english as a foreign language. modern problems in education and their scientific solutions*, 1(2), 24-28.
- [5]. Salimovna, A. C. (2024). *Ingliz tilini organishd fonetik qoidalarining orni. yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 1(4), 79-81.
- [6]. Chekhrangiz, A., & Singh, R. (2025). *The use of methods in the translation of literary texts. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 401-404.
- [7]. Обруева Г.Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. *Вестник Челябинского государственного университета*, (22), 2010. – С.100-102.